

## INSON KAPITALINING IQTISODIY MOHIYATI VA UNI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI

Jurayeva Zilola Turobovna

*BuxDU, dotsent*

Dilmurodova Sevara

*BuxDU, talaba*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada inson kapitalining iqtisodiy mohiyati, uning tarkibiy tuzilmasi, zamonaviy iqtisodiyotdagi o‘rni, korxona darajasida boshqarish strategiyalari hamda rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Inson kapitali, ko‘nikmalar, hunar, malaka parametrlari, xodimlar reyting ko‘rsatkichlari, innovatsion ko‘rsatkichlar, inson kapitaliga investitsiyalar*

**Abstract:** *This article analyzes the economic essence of human capital, its structural composition, its role in the modern economy, management strategies at the enterprise level, as well as mechanisms for its development.*

**Keywords:** *Human capital, skills, craftsmanship, qualification parameters, employee rating indicators, innovation indicators, investments in human capital.*

Dunyoning rivojlangan AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiya milliy daromad o‘shirish ko‘rsatkichini bevosita oshiradi. Masalan:

- Janubiy Koreyada iqtisodiy o‘shirishning 45% dan ortig‘i inson kapitali bilan bog‘liq;
- Yaponiya korxonalarining muvaffaqiyatida Kaizen falsafasi asosiy rol o‘ynaydi;
- AQSH Tesla, Apple, Microsoft kabi IT kompaniyalari xodimlarini rivojlantirishga har yili milliardlab dollar investitsiya kiritmoqda.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlar iqtisodiy taraqqiyotning drayveri sifatida inson kapitaliga e‘tiborni oshirish lozimligini asosiy masalalardan biri ekanligiga urg‘u beradi. Xo‘sh, O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun uning ahamiyati qanchalik darajada ahamiyatga ega?

O‘zbekiston misolida ham inson kapitalini rivojlantirish mamlakatning 2030-yilgacha rivojlanish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida IT ko‘nikmalarni shakllantirish, yoshlarni ta’limga keng jalb qilish, HR tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Inson kapitali iqtisodiyotning globallashuvi va texnologik modernizatsiya sharoitida mamlakatlar, hududlar va korxonalar, har qanday iqtisodiy subyektlarning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omilga aylanmoqda. Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotda insonning bilim, ko‘nikma, salohiyat va kreativ qobiliyatlari iqtisodiy o‘shirishning hal qiluvchi manbai hisoblanadi. Moddiy resurslar esa nisbatan o‘z ahamiyatini yo‘qotib bormoqda.

Shu sababli inson kapitalini samarali boshqarish, uni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va qo‘llash davlat siyosatida ham, korxonalar faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Inson kapitalining mohiyatini tavsiflashga harakat qilamiz.

Inson kapitali — bu shasning iqtisodiy qiymat yaratishga sabab bo’luvchi bilim, kasbiy ko’nikma, salomatlik, tajriba, intellektual salohiyat, motivatsiya kabi resurslar majmui hisoblanadi.

Garry Bekkerning inson kapitali nazariyasiga ko’ra, insonning o’ziga yo’naltirilgan har qanday investitsiya — ta’lim, sog’liqni saqlash, malaka oshirish — kelgusida iqtisodiy daromadni oshiradi.

Bekker inson kapitalini hisoblash va o’lchash bo’yicha metodologiyalarni ishlab chiqqan, xodimlarning malaka oshirishi, ish tajribasi va sog’liq darajasi umumiy iqtisodiy samaradorlikka qanday ta’sir qilishini tahlil qilib bergan. U o’z tadqiqotlarida inson kapitalini shakllantirishda davlat siyosati, ta’lim tizimi, sog’liqni saqlash tizimi va korxonalarining o’qitish strategiyalari asosiy omil ekanini ta’kidlaydi. Aynan shu ilmiy yondashuvlari tufayli Gari Beker 1992 yilda Nobel mukofoti bilan taqdirlangan.

Bekkerning asosiy xulosasi shuki, iqtisodiy taraqqiyotning eng ishonchli manbai — bu insonning o’zi, uning ilmiy salohiyati va kasbiy kompetensiyalari. Shu sababli zamonaviy boshqaruvda inson kapitalini rivojlantirish va unga investitsiya kiritish korxonalar va davlatlar uchun eng samarali strategiya hisoblanadi.

Inson kapitalining asosiy tarkibi quyidagi rasmda o’z ifodasini topgan (1-rasm):



1-rasm. Inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlari

Shuni qayd etish kerakki, inson kapitali tarkibidagi ko’nikma va u ega bo’ladigan kasb-hunar bir-biridan farq qiluvchi jihatlarga ega.

O’zbekiston Respublikasi Milliy Ensiklopediyasida ko’nikmalarga quyidagicha izoh berilgan: ko’nikma — insonning ilgari tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati. Ko’nikmalarlar amaliy faoliyatga, bilimlarni amalda qo’llay bilishga oid faoliyatning tarkibiy qismidir. Ko’nikma faoliyatning maqsadi va sharoitlariga mutanosib ravishda harakatni muvaffaqiyatli bajarish usullaridir. U hamisha bilimlarga asoslanadi, mahorat (malaka)ning negizi hisoblanadi. Ko’nikma mazmunan amaliy (jismoniy) va aqliy, shaklan oddiy va murakkab turlarga ajratiladi. Amaliy ko’nikmalar mehnat faoliyatini amalga oshirishga, aqliy ko’nikmalar bilim olishga, uni o’zlashtirishga yo’naltirilgan bo’ladi.

Ko'nikmalarni bilim bilan adashtirmaslik lozim, chunki bilimlar voqelik to'g'ri aks ettirilgan hukm (mulohaza)larda ifodalanadi. Ko'nikmalar esa ko'proq aqliy va jismoniy harakatlarda mujassamlashadi.<sup>9</sup>

Hunar — muayyan ko'nikma, mahorat talab qiladigan, tirikchilikning asosiy manbai hisoblanuvchi ish, mashg'ulot; kasb.<sup>10</sup>

Inson kapitalini ishlab chiqarish korxonalari, tashkilot va muassasalarda qo'llashning asosiy iqtisodiy jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Mehnat unumdorligi oshadi. Insonning ma'lumotlilik darajasi unumdorlikning oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aniqlanishicha, unumdorlik o'rta ma'lumotli shaxs faoliyati hisobidan 36%, o'rta maxsus ma'lumotli shaxs hisobidan 63%, oliy ma'lumotli shaxslar hisobidan esa 92%gacha oshishi mumkin ekan.

2. Innovatsion salohiyat kuchayadi. Kreativ va intellektual salohiyatga ega xodimlar yangi texnologiyalar, mahsulotlar va g'oyalarni yaratadi. Yaratuvchchanlik esa innovatsiyalardan samarali foydalanish imkoniyatini oshiradi.

3. Korxona raqobatbardoshligi ortadi. Bozor ulushi ortishi hisobidan yetakchilik yoki bozordagi liderlikka erishish mumkin.

4. Yuqori malakali ishchi kuchi iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi. Mahsulot va xizmatlarni ko'plab ishlab chiqarish mamlakat miqyosida makroiqtisodiy o'sishga sabab bo'ladi.

5. Investitsiyalarning qaytarish imkoniyati yuqori bo'ladi. Malakali xodimlar investitsion qarzdorlikni kamaytirish imkonini beradi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida inson kapitalining rivojlanishi yangicha xususiyatlar kasb etmoqda. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Ta'limning uzluksiz xarakteri va uning butun karyera davomida samarali mehnat bilan uyg'unlashuvi.

2. Yangi g'oyalarni yaratish uchun bilim va ko'nikmalarni innovatsion tarzda qo'llash qobiliyati.

3. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish nafaqat alohida shaxslardan, balki jamoalar va tashkilotlardan ham doimiy o'rganish hamda ijodiy fikrlashni talab etadi. Investitsiyalar inson kapitalini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular ta'lim va kasbiy tayyorgarlik maqsadlari uchun zarur manbalarni ta'minlaydi.<sup>11</sup>

Ular insonlarning malakasi va ko'nikmalarini oshirish uchun hayotiy zarur bo'lib, bu o'z navbatida daromadlarning ko'payishi va iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Inson kapitalini rivojlantirishning samarali strategiyasini ishlab chiqish va o'ziga xos muammolarni hal etish uchun kompaniyalar ushbu sohada investitsiya dasturlarini joriy etishlari lozim.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson kapitaliga yo'naltirilgan har bir investitsiya korxonaning kelajakdagi barqarorligini oshiradi, innovatsion salohiyatini kuchaytiradi va

<sup>9</sup> O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

<sup>10</sup> © Izoh.uz — O'zbek tilining izohli lug'ati, 2014–2025

<sup>11</sup> Kunduzova K.I. Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy omili sifatida. “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali | 11-son 358-367-betlar. [www.infocom.uz](http://www.infocom.uz)

raqobat ustunligini shakllantiradi. Inson kapitaliga investitsiyalar uzoq muddatli va yuqori daromadli hisoblanadi.

Xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, ta’limga 1 dollar investitsiya 5-15 dollar daromad keltiradi, xodimlarni o‘qitish mahsuldorlikni 10-20% oshiradi, samarali motivatsiya tizimi kadrlar aylanuvchiligini 30-40% kamaytiradi, yangi xodimni yollash va o‘qitish xarajatlari uning yillik maoshining 50-150% ini tashkil etadi.

### **1-jadval**

#### **Inson kapitaliga investitsiyalar va kutilayotgan natijalar**

| <b>Investitsiya yo‘nalishi</b> | <b>Xarajatlar (yillik ish haqi fondiga %)</b> | <b>Amalga oshirish muddati</b> | <b>Kutilayotgan natija</b>            | <b>ROI (daromad investitsiyaga nisbati)</b> |
|--------------------------------|-----------------------------------------------|--------------------------------|---------------------------------------|---------------------------------------------|
| Kasbiy o‘qitish                | 3-5%                                          | 6-12 oy                        | Mehnat unumdorligi +15%               | 250-300%                                    |
| Raqamli transformatsiya        | 2-3%                                          | 12-24 oy                       | Avtomatlash +30%,<br>xarajatlar -20%  | 180-220%                                    |
| Motivatsiya tizimi             | 10-15%                                        | 3-6 oy                         | Aylanuvchilik - 30%,<br>Loyallik +40% | 150-200%                                    |
| Liderlarni rivojlantirish      | 1-2%                                          | 12-18 oy                       | Jamoa samaradorligi +25%              | 200-280%                                    |
| Sog‘liqni saqlash              | 1-2%                                          | Davomiy                        | Kasallanish -25%,<br>unumdorlik +10%  | 120-160%                                    |

*Manba: Xalqaro amaliyot va tadqiqot natijalari asosida*

Hisob-kitoblarga ko‘ra, xizmat ko‘rsatish korxonalari inson kapitaliga yillik ish haqi fondining 7-10% i miqdorida investitsiya kiritisa, 2-3 yil Ichida, mehnat unumdorligi 25-35% oshadi, kadrlar aylanuvchanligi 2 baravar kamayadi, mijozlar qoniqish darajasi 20-30% ortadi, umumiy rentabellik 15-20% yaxshilanadi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, xizmat ko‘rsatish korxonalarida inson kapitalidan foydalanish samaradorligini oshirish zamonaviy iqtisodiyotning dolzarb muammosi hisoblanadi.

Fikrimizcha, inson kapitalini joriy etish va rivojlantirish turli mamlakatlar iqtisodiy imkoniyatlaridan bog‘liq holda, turli muammolarga duch kelmoqda, jumladan, sun‘iy intellektning rivojlanishi kator ilmiy tadqiqotlar saviyasining pasayishiga, ijtimoiy tarmoqlarga bog‘lanib qolish esa, saz fikrlashga, yuqori texnologik taraqqiyot esa hunarlar egallashga to‘sqinlik qilmoqda.

Inson kapitalini rivojlantirish maqsadida quyidagilarni tavsiya etamiz:

1. Salomatlik indeksini ishlab chiqishda mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, maxsus parametrlar to‘plamini ishlab chiqish zarur. Chunki, shunday kasalliklar borki, hududning tabiiy iqlim sharoitlari, ishlab chiqarish imkoniyatlaridan bog‘liq bo‘ladi.

Demak, jahon miqyosidagi salomatlikni baholash ko‘rsatkichlari O‘zbekiston aholisi uchun mos kelmasligi mumkin.

2. Inson kapitalining malaka bilan bog‘liq masalalarida xodimlarning ko‘nikma va malakalarini oshirib borish uchun ular faoliyat yuritadigan korxona va tashkilotlarning tarkibida mazkur ishni tizimli tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash zarur.

3. Talabalarning ish bilan bandligini ta'minlash uchun korxona, tashkilotlar bilan ta'lim muassasalarining integrasiyasini amalga oshirishda yangi strategiyalar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish lozim.

### **FOYLANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika va mahalliy etuvchi hokimiyat organlarida inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 22.09.2023 yildagi 492-son. <https://lex.uz/docs/-6615177>

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000y

3. Azlarova M.M. Inson resurslarini boshqarish: o‘quv qo‘llanma. – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: Iqtisodiyot, 2019. - 207 bet.

4. Kunduzova K.I. Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy omili sifatida. “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali | 11-son 358-367-betlar. [www.infocom.uz](http://www.infocom.uz)